

UO‘K (UDC, УДК): 811.111(73): 821.512.133

ABDULLA QAHHOR VA JEK LONDON HIKOYALARIDAGI O‘ZIGA HOS, O‘XSHASH VA FARQLI JIHATLARNING QIYOSIY TAHLILI³

Bahriddinov Muslimbek Muhiddinovich,
Ingliz tili va adabiyoti kafedrası o‘qituvchisi, dotsent,
Andijon Davlat chet tillari instituti, Andijon
Email: bahriddinov5434@gmail.com
0009-0009-2058-9733

ANNOTATSIYA

Bugungi globallashuv jarayonida barcha sohalar qatori ilm fan ham jadal rivojlanib bormoqda. Xususan, adabiyot sohasidagi o‘zgarishlar sezilarli darajada oshdi. Bir millatning adabiyotidagi rivojlanish, ayniqsa, boshqa bir millat, boshqa xalq adabiyoti bilan qiyosan o‘rganilganda sezilarli darajada kuzatiladi. O‘zbek adabiyotidagi nodir asarlarni tahlil qilish, ularning hayoti hamda ijodini o‘rganish dolzarb bo‘lib turgan bir paytda, dunyoning boshqa bir chekkasidagi xalq adabiyoti bilan qiyosan o‘rganish kechiktirib bo‘lmaydigan bir ishdir. Shu sababda bu sohadagi izlanishlarga hissamizni qo‘shish maqsadida o‘zbek hamda amerika adabiyotining ayrim jihatlarini qiyosan o‘rganishga jazm etdik. Ushbu maqolada ikki buyuk adiblar, o‘zbek hikoya janri ustasi Abdulla Qahhor hamda amerika adabiyoti vakili Jek London hikoyalari bir qator adabiy mezonlar yuzasidan tahlil qilinib, ulardagi ayrim o‘ziga xosliklar, o‘xshash va farqli jihatlar tadqiq qilinadi. Ikki turlicha xalq adabiyoti namoyondalarining ijodi qiyosan tahlil qilinganda, bu xalqlar dini, ijtimoiy kelib chiqishi, turmush tarzi hamda yashash sharoitlarini ham o‘rganish ushbu ilmiy ishimizni muhim jihatlaridan biridir. Maqolada ushbu ikki hikoyanavis hikoyalaridagi o‘ziga hos, o‘xshash va farqli jihatlardan tashqari ayrim hikoyalari tahliliga ham to‘xtalinadi.

KALIT SO‘ZLAR

Gumanizm, ijtimoiy muammo, qahramon, obraz, mavzu, realizm, ijtimoiy tengsizlik, jismoniy kurash, ma‘naviy kurash, sinfiy qarama – qarshilik.

Received: December 2,
2024

Accepted: December 23,
2024

Available online: March
1, 2025

³ For citation (Iqtibos keltirish uchun, для цитирования):

Bahriddinov M.M. Abdulla Qahhor va Jek London hikoyalaridagi o‘ziga hos, o‘xshash va farqli jihatlarining qiyosiy tahlili. // Komparativistika (Comparative Studies). — 2025. — Vol.2, № 1. — B. 32-40

СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ СВОЕОБРАЗИЯ, СХОДСТВ И РАЗЛИЧИЙ В РАССКАЗАХ АБДУЛЛЫ КАХХАРА И ДЖЕКА ЛОНДОНА

Бахриддинов Муслимбек Мухиддинович
Преподаватель кафедры
английского языка и литературы, доцент,
Андижанский государственный
институт иностранных языков, Андижан
Эл. почта: bahriddinov5434@gmail.com
0009-0009-2058-9733

АННОТАЦИЯ

В условиях глобализации, наука, подобно другим сферам, также стремительно развивается. В частности, более заметными стали изменения в области литературы. Развитие литературы одной нации особенно ярко проявляется при сравнении с литературой другой нации. Анализ лучших произведений узбекской литературы, изучение жизни и творчества их авторов является актуальной проблемой, что влечет за собой другую неотложную задачу - сравнение этих произведений с литературой другой нации на другом конце мира. Поэтому, чтобы внести свой вклад в исследования в этой области, мы решили в сравнительном плане изучить некоторые аспекты узбекской и американской литературы. В данной статье произведения двух великих писателей, мастера узбекского рассказа Абдуллы Каххара и представителя американской литературы Джека Лондона, анализируются с точки зрения различных литературных критериев. Изучаются их сходства и различия, а также некоторые уникальные особенности. В процессе сравнительного исследования творчества представителей двух различных национальных литератур одним из важных вопросов является исследование религиозного и социального аспектов жизни различных народов, образа и условий их жизни, отраженных в художественных произведениях. В статье рассматриваются не только уникальные черты, сходства и различия в произведениях двух авторов рассказов, но и проводится подробный анализ некоторых их произведений.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА

Гуманизм, социальные проблемы, герой, образ, тема, реализм, социальное неравенство, физическая борьба, духовная борьба, классовый конфликт.

A COMPARATIVE ANALYSIS OF THE SPECIFICS, SIMILARITIES, AND DIFFERENCES IN THE STORIES OF ABDULLAH QAHHAR AND JACK LONDON.

Bahriddinov Muslimbek Muhiddinovich

Teacher of the Department of English Language and Literature,

Associate Professor,

Andijan State Institute of Foreign Languages, Andijan

Email: bahriddinov5434@gmail.com

0009-0009-2058-9733

ABSTRACT

In the current era of globalization, science, like many other fields, is experiencing rapid development. Specifically, there has been a substantial increase in changes within the field of literature. The progress in the literary works of a particular country is especially evident when contrasted with the literature of another nation. Analyzing rare works in Uzbek literature, studying the life and creativity of their authors is urgent, and at the same time, comparing these works with the literature of another nation on the other side of the world is an indispensable task. Therefore, in order to contribute to research in this field, we decided to compare certain aspects of Uzbek and American literature. In this article, the works of two great writers, the master of Uzbek short stories, Abdullah Qahhor, and the representative of American literature, Jack London, are analyzed based on various literary criteria. The similarities and differences in their works, as well as their unique characteristics, are investigated. When the creativity of representatives of two different national literature is compared, studying the religious, social origin, lifestyle and living conditions of these peoples is also one of the important aspects of this scientific work. This article not only examines the peculiarities, similarities, and differences in the works of these two storytellers but also analyses into the analysis of some of their short stories.

KEY WORDS

Humanism, social issues, hero, image, theme, realism, social inequality, physical struggle, spiritual struggle, class conflict.

KIRISH

Qiyosiy adabiyotshunoslik sohasida juda ko‘plab ishlar amalga oshirilmoqdaki, bu izlanishlar mevasi sifatida ko‘plab ilmiy maqolalar, monografiyalar chop etilmoqda. Xususan, Abdulla Qahhor va Jek London asarlari ham qiyosiy planda ko‘plab olimlar tomonidan o‘rganildi va hozir ham izlanishlar olib borilmoqda. Ana shu ilmiy izlanishlarga o‘z hissamizni qo‘shish maqsadida ikki adibning hikoyalarida uchraydigan o‘ziga xos bo‘lgan jihatlarni, ayrim o‘xshash va farqli taraflarni qolaversa, ba’zi hikoyalaridagi muhim qismlarni badiiy mezonlar nuqtayi nazaridan tahlilga tortdik.

Abdulla Qahhor hamda Jek London asarlari ko‘plab adabiyotshunos olimlar tomonidan o‘rganilgan. Xususan, Abdulla Qahhor ijodi Said Ahmad, Ozod Sharafiddinov, Matyoqub Qo‘shjonov, S.Sodiqov, Sh.Normatova, A.Ulug‘ovlar tomonidan o‘rganilgan bo‘lsa, amerikalik adib ijodi esa Charmeyn London, Djoan London, Irving Stoun, Frederik Xoffman, Karl Linn, Charlz Uolkatt kabi olimlarning dissertatsiyalari uchun obyekt vazifasini bajargan. Lekin bizni tadqiqotimiz yuqoridagi olimlarning izlanishlaridan farqli o‘laroq adiblarning hikoyalaridagi o‘ziga xos, o‘xshash hamda farqli jihatlarni tahlil qiladi.

ASOSIY QISM

O‘zbek hamda Amerika adabiyotidagi hikoya janrida gap ketganda hayolimizga beixtiyor keladigan yozuvchilar shubhasiz Abdulla Qahhor va Jek Londondir. Qisman bir davrda yashagan bo‘lishlariga qaramay kamdan kam holatlarda ular zamondosh hisoblanadi. Ulardagi turlicha ijtimoiy muhit, din hamda axloqiy qadriyatlar, ular ijodida ayrim o‘ziga xosliklar, o‘xshashliklar va farqli jihatlarni shakllanishida asosiy omil vazifasini bajargan. Ushbu o‘ziga xosliklar ulardagi adabiy yo‘nalishlarida, tanlagan mavzularida, yaratgan obrazlarida, asarlaridagi ilgari surgan g‘oyalarida namoyon bo‘lishi kuzatiladi.

Abdulla Qahhor va Jek London, o‘z davrlarining eng yetakchi yozuvchilari sifatida, o‘z asarlarida insoniyatni o‘rganishga, ijtimoiy va psixologik masalalarni ko‘tarishga katta e’tibor qaratgan. Qahhorning asarlari o‘zbek qishloq hayotini va uning ichki kurashlarini tasvirlar ekan, Jek Londonning hikoyalari odamlarning

tabiat bilan kurashlari va omon qolish intilishlarini yoritadi. Bu ikki yozuvchi oʻrtasidagi asosiy farqlarni va oʻxshashliklarni tushunish uchun ularning asarlaridagi oʻziga xos jihatlarni tahlil qilish zarur.

Ikkita turli xil adabiyot vakillari sanalgan, turlicha dinlarga eʼtiqod qiluvchi, bir birlaridan farqli jamiyatlardan yetishib chiqqan yozuvchilarning asarlarini qiyosiy nuqtayi nazardan oʻrganishda, garchand ular ayni bir janrda ijod qilgan boʻlsalar ham, oʻziga xos, oʻxshash hamda farqli jihatlarni yetarlicha uchratish mumkin. Quyida oʻzbek hikoyanavisi Abdulla Qahhor hamda amerika adabiyoti vakili sanalgan Jek Londonning hikoyalaridagi oʻziga xosliklarning ayrimlarini tahlilga tortamiz;

Adabiy yoʻnalishlar: Abdulla Qahhor hikoyalarida realizm va sotsializmga asoslangan yoʻnalishdan foydalangan bir paytda Jek London naturalizm va sotsializmdan foydalanadi.

1. **Asosiy mavzular:** adibimiz oʻzbek xalqining ijtimoiy muammolari, tazyiqlar, milliy qadriyatlarni mavzu darajasiga koʻtargan boʻlsa, amerika adabiyoti vakili tabiat, har qanday qiyin holatlarda ham insonning oʻzini oʻzi yenga olishi, hayot uchun kurashi mavzu sifatida tanlanadi.
2. **Qahramonlar:** A.Qahhorning hikoyalaridagi qahramonlar koʻp hollarda oʻzi yashagan muhitda yetishib chiqqan personajlar – oddiy odamlar, ishchilar, dehqonlar, sodda oʻzbek ayollaridan iborat boʻlsa Jek Londonning qahramonlari oʻziga xos holda oltin izlovchilar, ovchilar, sarguzasht ixlosmandlari va koʻp hollarda hayvonlardan iborat boʻlganini kuzatish mumkin.
3. **Ijtimoiy muammolar:** Abdulla Qahhorning “Oʻtmishdan ertaklar”ida “.... bolaligimda zehninga choʻkib qolgan xotiralar uygʻondi, yuzaga chiqdi, oʻsha vaqtdagi xalq hayotini koʻz oldimga keldi. Mana shuning natijasi boʻlib, oʻttizinchi yillarning oʻrtalarida gʻam gʻussaga toʻla “Oʻgʻri” (Qahhor A., 1987, 333), “Tomoshabogʻ” (Qahhor A., 1987, 279), “Bemor” (Qahhor A., 1987, 289), “Anor” (Qahhor A., 1987, 285), “Millatchilar” (Qahhor A., 1987, 303) dunyoga keldi.” (Qahhor A., 1987, 3-4) - deya taʼkidlashidan maʼlum boʻladiki yuqoridagi hikoyalarida ilgari surgan ijtimoiy muammolar aynan adibning koʻz oʻngida sodir

bo'lgan voqeliklarni aks ettiradi. Adib hikoyalarida ijtimoiy adolatsizliklar, og'ir mehnat sharoitlari, nohaqlikka yo'g'rilgan inson huquqlari muammo sifatida bo'y ko'rsatadi. Jek Londonda esa sinfiy tafovutlar, qashshoqlik, inson va tabiat o'rtasidagi muammolar, insonning og'ir sharoitlardagi yolg'izlik holatlari ijtimoiy muammo sifatida ko'rsatiladi.

Ushbu xildagi o'ziga xosliklarni ro'yxatini keragicha keltirish mumkin biroq tadqiqotimiz chegarasini hisobga olgan holda endi adiblarimiz hikoyalaridagi o'xshash hamda farqli jihatlarini tahliliga o'tsak.

Quyida adiblarimiz hikoyalaridagi ayrim mushtarak sanalgan jihatlarini ko'rib o'tamiz;

Insonning ichki dunyosining ochib berilishi: har ikkala yozuvchilarimiz hikoyalaridagi qahramonlar ichki dunyosini, ichki kurashlarini, ulardagi ruhiy holatlarni, psixologik iztiroblarini yuksak mahorat bilan tasvirlaydilar.

1. **Gumanizm:** Insonparvarlik g'oyalari har ikki adibimizning hikoyalarida ham asosiy o'rinda turadi. Yozuvchilar hikoyalarida insonning har tarafdan yaxshilanishiga, ma'naviy o'sishiga urg'u qaratadilar.

2. **Inson va jamiyat:** Abdulla Qahhor ham Jek London ham ijtimoiy masalalarga qaratilgan bo'lib ularning qahramonlari har doim jamiyatda o'z o'rinlarini topish uchun intilishadi.

3. **Realizm:** Ikkala adibimiz ham o'z hikoyalarida voqelikni ham obrazlarni ham realistik uslubda ya'ni boricha tasvirlaydilar.

4. **Ijtimoiy tengsizlik:** Adiblarning har ikkisi ham hikoyalarida ijtimoiy tengsizlikni ko'rsatishga urinishadi, hikoyalardagi qahramonlar muntazam ravishda hayotdagi nohaqliklarga qarshi kurashishadi.

Yuqoridagi sanab o'tilgan o'xshashliklardan tashqari ijtimoiy adolatsizlik, qahramonlarning tashqi kurashlari, o'zini anglash, falsafiy savollar, qahramonlarning iztiroblari va boshqa bir qator jihatlarida ham kuzatiladi.

Har qanday adabiyotlarning yoki ularning namoyondalarini qiyosiy jihatdan o'rganib, o'ziga xosliklari tahlilga tortilganda ular o'rtasidagi asosiy farqlar yuzaga

keladi. Yuqoridagi tahlillarimizdan so‘ng adiblarimizning hikoyalarida ko‘zga tashlanadigan farqli jihatlarni tadqiq qilamiz:

1. **Hayotning shafqatsizligi:** Jek London asarlarida, masalan, “Hayotga muhabbat”, “The call of the wild”(London J., 2010, 1), “White fang”(London J., 2010, 83) tabiat va tashqi sharoitlarning inson hayotidagi shafqatsizligi ko‘proq ko‘rsatilgan bo‘lsa, Abdulla Qahhor jamiyat va insonlarning ichki muammolariga e‘tibor beradi.
2. **Tabiatning roli:** Jek London hikoyalarida tabiat ko‘proq tashqi kuch sifatida qahramonlar uchun sinov bo‘lib xizmat qiladi, Abdulla Qahhor esa jamiyatdagi insonlar o‘rtasidagi munosabatlarni tasvirlaydi.
3. **Gumanizmga yondashuv:** Abdulla Qahhor o‘z hikoyalarida gumanizmni ma’naviyat, axloqiy qadriyatlar va jamiyatdagi nohaqliklarga qarshi kurashda ko‘rsatgan bo‘lsa Jek London hayot va tabiatga qarshi kurashdagi iroda va gumanistik yondashuvda aks ettiradi.
4. **Jismoniy va ma’naviy kurash:** Jek Londonning hikoyalaridagi qahramonlari ko‘proq jismoniy kurashlar orqali o‘z hayotini saqlab qolishadi, Abdulla Qahhor esa ko‘proq ma’naviy, ruhiy kurashni tasvirlaydi.
5. **Sinfiy qarama-qarshilik:** Jek London asarlarida sinfiy kurashlar va sinfiy tengsizliklar ko‘proq tasvirlanadi, Abdulla Qahhor asarlarida esa jamiyatning axloqiy va ma’naviy tomonlariga e‘tibor qaratiladi.
6. **Tabiatga qarshi kurash:** Jek Londonning hikoyalarida tabiatning g‘alabasi ko‘proq aks ettiriladi, qahramonlar tabiiy kuchlar bilan kurashadilar, Abdulla Qahhor esa odamlar o‘rtasidagi munosabatlarni yoritadi.

Yuqoridagi tahlillar shuni ko‘rsatadiki ikki turli adabiyot vakillarining asarlari qiyosan o‘rganilganda ulardagi o‘ziga xos jihatlari, mushtarak xususiyatlar va farqli sanalgan adabiy unsurlarga alohida e‘tibor qaratish talab etiladi.

Shu o‘rinda Abdulla Qahhorning ayrim hikoyalaridagi muhim jihatlarga to‘xtalsak.

“Maston” hikoyasida “ichkari”dagi ayollarning “asriy kishanlari”dan xalos bo‘lib, o‘z erki, baxti uchun faxr tuyg‘ulariga to‘lib, yangi hayotga intilayotgan

o'zbek ayoli obrazi tasvirlangan bo'lib, o'z zamonasining real voqealari va ijtimoiy munosabatlarini yaqqol ko'rsatib beradi. Bosh qahramon bo'lgan Maston, real hayotda mavjud bo'lgan va o'xshash sharoit va muhitda yashayotgan minglab ayollarning umumlashma prototipi bo'lib, zamon talabiga ko'ra qishloqdan shaharga o'qishga boradi. U dugonasi Turg'unoyni ham birga ketishga ko'ndiradi. Turg'unoy otasi o'lib, noilojlikdan, ko'chada qolmaslik uchun erga tegishga majbur bo'lgan. Ammo "so'xtasi sovuq eri" uning ko'ziga alvasti bo'lib ko'rinardi. O'tmishda Turg'unoylar bunday qismatga ko'nishi, umrining oxirigacha "peshonamga bitgani shu ekan" deb, tengsizlik, huquqsizlik iskanjasida o'tib ketishi muqarrar edi. A.Qahhor qalamga olgan shunday "fojia"lar va "dahshatlar" badiiy to'qima bo'lmay, aksariyati adibning bolalik xotiralar, ko'rgan-kechirganlari asosida yaratilgan edi. Ular adibning ta'biri bilan aytganda, "o'tmish ertaklari" sifatida talqin qilinsa-da, real hayotiy voqealarni, haqiqiy hayot manzaralarini aks ettirar, bu kunlardan bexabar kitobxon ongida tasavvur qilish qiyin bo'lgani bois adib shu mavzudagi turkum hikoyalar nomini "O'tmish fojialari" emas "ertaklari"ga alishtirishga majbur bo'lgan edi.(Qahhor A., 1988, 144) "Maston" hikoyasi ikki obrazning bir kunlik voqealarini qamrab olgan bo'lsa-da, syujet liniyasida turli kiritma voqealar orqali butun bir xalqning ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlarga reaksiyasi, ularning ichki kechinmalaridan tashqari qarashlaridagi o'zgarishlar ham turli motivlar bilan chuqur ko'rsatib o'tilganki, ularda umuminsoniy g'oyalar uyg'onishi o'z aksini topadi. Haq-huquqi cheklangan ayollarning orzu-umidlarga yetishishlari uchun hatto Turg'unoy "*ammasining qiziday pes bo'lsam qo'yib yuboradi*" deb o'z ovqatiga kaltakesak solib yeyishga yoki Unsinning "*qabristonda choy damlab kelish*"gacha borib yetishi ularning qanchalar nochor ekanligini buning naqadar "fojia"ligi yaqqol tasvirlab beradi. Bu kabi obrazlar odatda bosh qahramon bo'lishlariga qaramay, ularning xarakterlari aksariyat ikkilamchi obrazlar orqali ifoda qilinadi. Bu jihat ham Qahhor poetikasining o'ziga xos belgisi hisoblanadi. Maston orqa fondagi qahramon bo'lib, hikoyada o'z umidlariga yetgan, shijoatli va irodali qahramon sifatida gavdalanib, bosh qahramonga o'ziga xos oppozitsiyani aks ettiradi. Maston bilan Turg'unoy tun

bo‘yi yo‘l yurib, kimsasiz dasht vahimasini yengib o‘tishadi. Maston katta maqsad yo‘lida dadil harakat qiladi. U o‘zini ojiz, mushtipar, nochor deb emas, haqiqiy inson deb biladi. “Biz tovuq emaski, qanday tuxum bostirsa, shuni ochib chiqarsak”, deydi Maston. Bu so‘zlarida o‘z qadr-qimmatini chuqur tushungan inson g‘ururi o‘z ifodasini topadi.

XULOSA

Xulosa o‘rnida shuni alohida ta’kidlash joizki, tahlilga tortilgan ushbu ikki adiblarmiz hikoyalaridagi o‘xshashliklar, o‘xshash va farqli jihatlarning ayrimlari aniqlandi. Ushbu farqlar ular yashab ijod qilgan jamiyatlar, ular e’tiqod qilgan din, va ulardagi axloqiy mezonlar sababidan vujudga kelganligi ma’lum bo‘ldi. Ayni shu sababdan, adibimiz qahramonlaridagi ayrim insoniy tushunchalar, masalan, sadoqat, do‘stlik, oilaga oid qarashlar Amerika adabiyoti vakilining qahramonlaridagi ushbu tushunchalardan anchayin farqlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Qahhor, A. (1987). *Asarlar* (Besh jildlik, Birinchi jild). Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti.
2. Qahhor, A. (1987). *O‘tmishdan ertaklar*. Toshkent: Yulduzcha nashriyoti.
3. Қаҳҳор, А. (1988). *Ўтмишдан эртаклар*. Тошкент: Ғ. Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти.
4. London, J. (2010). *The call of the wild and White Fang*. Signet Classics.
5. London, J. (n.d.). *Hayotga muhabbat*. Retrieved from <https://uzsmart.ru/kutubxona/asarlar/1536-hayotga-muhabbat-hikoya-jek-london.html>

REFERENCES

1. Qahhor, A. (1987). *Collected Works* (Five volumes, Volume 1). Tashkent: Gafur Gulom Literature and Art Publishing House.
2. Qahhor, A. (1987). *Tales from the Past*. Tashkent: Yulduzcha Publishing House.
3. Qahhor, A. (1988). *Tales from the Past*. Tashkent: Gafur Gulom Literature and Art Publishing House.
4. London, J. (2010). *The Call of the Wild and White Fang*. Signet Classics.
5. London, J. (n.d.). *Love of Life*. Retrieved from <https://uzsmart.ru/kutubxona/asarlar/1536-hayotga-muhabbat-hikoya-jek-london.html>